



## JINOYAT ISHLARI YURITUVIDA SHAXS HUQUQLARINI TA'MINLASHNING AYRIM JIHLATLARI

**Rahmonov Shohruh Faxridinovich  
Inatilloev O'tkirbek Shuxratillo o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistrantlari

Elektron pochta: shohruhjohn@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8037506>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 08-June 2023 yil

Ma'qullandi: 10-June 2023 yil

Nashr qilindi: 14-June 2023 yil

### KEY WORDS

*gumon qilinuvchi, ayblanuvchi,  
aybsizlik prezumpsiyasi,  
qamoqqa olish, ehtiyot chorasi*

### ABSTRACT

*mazkur maqolada ishni sudga qadar yuritish davrida jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalasi tahlil qilingan bo'lib, uning erkinligi va shaxsiy daxlsizligini cheklashda va aybsizlik prezumpsiyasini qo'llashda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqolada sud-tergov amaliyotida aynan shaxs huquqlarini ta'minlash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan*

Jinoyat ishini sudga qadar yuritishda shaxsning erkinligini ta'minlash, qolaversa aybsizlik prezumpsiyasining to'liq ishlashiga erishish muhim masala. Mansabdor shaxslarga gumon qilinayotganlarning aybdorligi haqida sudgacha bayonot berish man qilinishi kerak yoki bunday huquqqa faqatgina shaxsni ayblash vakolatiga ega bo'lgan shaxs ega bo'lishi kerak. D.B.Bazarovning fikricha, shaxsning jinoyat sodir etganlikda aybdorligi haqidagi xulosa taxminlarga asoslanishi mumkin emas va shubhasiz yetarli dalillar bilan isbotlanishi lozim [1]. Bu talabning bajarilmasligi jinoyat ishining tugatilishiga yoki ishni sudga ko'rish natijasi bo'yicha oqlov hukmi chiqishiga olib kelishi mumkin. B.A.Saidov fikricha, milliy qonunchiligimizda aynan aybsizlik prezumpsiyasi buzilishiga yo'l qo'yib beruvchi normalar mavjud. Jumladan, u aybsizlik prezumpsiyasi prinsipining talablari to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida tergov organlari tomonidan jinoyatning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida ayblanuvchilarga nisbatan asoslantirilmagan taqdimnomalar kiritish amaliyotiga barham berish zarurligini ta'kidlagan [2].

Protsessualist olim F.G.Shaxkeldovning ta'kidlashicha, mazkur prezumpsiyaning qonunchilikda aks etishidan maqsad shaxsning asossiz ravishda ayblanishining olidini olish hisoblanadi [3]. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 297, 299-moddalari mazmunidan anglashiladiki, taqdimnoma hali shaxsning ishi sudga ko'rib chiqilmasdan oldin uni davlat organi xodimlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi yoki jamoat birlashmasi a'zolari oldida aybdor sifatida ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, mazkur turdagi taqdimnomalar aslida jinoyatning sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish

choralarini ko'rishga qaratilgan bo'lsada, unda jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan aniq shaxs ko'rsatiladi. Ushbu tartibning yana bir jihati, taqdimnoma unda shaxsi ko'rsatilgan fuqaroning keyingi taqdiriga, faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayblanuvchiga nisbatan ish beruvchi tomonidan intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin, xatto lavozimidan chetlashtirilish holatlari ham uchramoqda [4]. Bunday amaliyot esa, bizningcha aybsizlik prezumpsiyasiga to'g'ri kelmaydi. Shu bois mazkur turdagi taqdimnomalarni kiritishda ayblanuvchining shaxsini muhokama qilmaslikka alohida e'tibor qaratish zarur.

Ehtiyot choralari protsessual majburlov choralarining juda muhim tarkibiy qismi sanaladi. Ular birinchi navbatda qonunbuzarlikning oldini olish xususiyatiga ega, boshqacha aytganda bu choralar qo'llanilishi mumkin bo'lgan shaxslarning kelgusida g'ayriqonuniy faoliyatiga yo'l qo'yimaslikka xizmat qilish bilan birga jinoyat-protsessual faoliyatning samarali tashkil etilishiga sharoit yaratadi. Ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi (alohida hollarda gumon qilinuvchi) surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo'yin tovlashining oldini olish; uning bundan buyongi jinoiy faoliyatining oldini olish; uning ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlariga yo'l qo'yimaslik; hukmning ijro etilishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi (JPK 236-modda). Gumon qilinuvchiga nisbatan bu turdagi choralarni qo'llashdagi asosiy qiyinchilik uning protsessual maqomiga borib taqaladi.

Qoida tariqasida ehtiyot choralari ayblanuvchilarga nisbatan qo'llaniladi, ya'ni shaxsga nisbatan ayblov e'lon qilingan bo'lishi lozim. Alohida hollarda ehtiyot chorasi gumon qilinuvchi sifatida JPK 221-moddasiga asosan ushlangan shaxsga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Bunday hollarda ehtiyot chorasi o'n kungacha muddatga (ushlab turish vaqti hisobga olingan holda) qo'llanilgan hisoblanib, shu muddat ichida gumon qilinuvchi jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinishi shart [5]. Boshqacha aytganda, surishtiruvchi, tergovchi va prokurorda shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i qo'llanilgan vaqtdan boshlab ayb e'lon qilish uchun 10 kunlik muddat mavjud. Biroq, bunday hollarda ayblov sifati shubha ostida qoladi. Buning sabablari sifatida jinoyat ishi doirasida yig'ilgan dalillarning yetarli emasligi va jinoyat ishi holatlarining to'liq o'rganilmaganligini ko'rsatish mumkin.

Shuning uchun mazkur muddat ichida ayb e'lon qilish masalasi protsessualist olimlar o'rtasida bahsga sabab bo'lmoqda. Jumladan, A.A.Bondarev fikricha, shoshmashosharlik bilan, yetarli dalillarni to'plamasdan turib yoki zarur materiallarni yig'imasdan turib ayblangan shaxsning tergov jarayonida aybsiz ekanligi ma'lum bo'lishi va rehabilitatsiya qilinishi mumkin [6]. Shuning uchun olim bunday vaziyatda ayblov e'lon qilish muddatini uzaytirishni taklif etgan. D.A.Ivanov hamda M.A.Kulikovlar ham bu fikrga qo'shilgan holda mazkur tartibning kamchiliklariga to'xtalgan [7]. Nima sababdan bunchalik qisqa muddat berilganligi, bu vaqt ichida yig'iladigan dalillarning yetariligi va umuman e'lon qilinadigan ayblovning sifati munozarali masala.

Amaldagi qonunchiligimiz bo'yicha, mazkur tartibga rioya qilish juda muhim bo'lib, ehtiyot choraning qonuniy va asosli tanlanganligi shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida jinoyat ishiga to'g'ri jalb etilganligiga bevosita bog'liq bo'lib qoladi. Shuning uchun ushlab turilgan gumon qilinuvchiga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashning qonuniyligi va asosililigiga alohida e'tibor qaratish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Базарова Д.Б. Жиноят процессида шахс ҳуқуқларини таъминлашда жиноят-процессуал принциплар //журнал правовых исследований. – 2021. – Т. 6. – №. 10.
2. Саидов Б.А.. Ишни судга қадар юритишда шахснинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликлари таъминланишини такомиллаштириш. Юридик фанлар доктори (DSc) диссертацияси автореферати. -30б. <https://interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3a0264f01.file>
3. Шахкелдов Ф. Г. Концептуальные аспекты презумпции невиновности в уголовном процессе: генезис и тенденции совершенствования: автореф. дис. ... д-ра. юрид. наук. <https://www.dissercat.com/content/kontseptualnye-aspekty-prezumptsii-nevinovnosti-v-ugolovnom-protsesse-genezis-i-tendentsii-s>
4. Прокурор протести айбсизлик презумпциясига зид...ми? <http://advokatnews.uz/xabar/747.html>
5. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 14 ноябрдаги 16-сонли «Судга қадар иш юритиш босқичида қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чорасининг судлар томонидан қўлланилиши тўғрисида»ги қарори. <https://lex.uz/ru/docs/1595235>
6. Куликов М.А., Иванов Д.А. Международные стандарты мер пресечения и их имплементация в законодательство Российской Федерации. Всероссийский криминологический журнал: 2020. Т. 14, № 4. С. 627. <http://cj.bgu.ru/reader/article.aspx?id=23954>
7. Мавланов К. Айрим ривожланган хорижий мамлакатлар қонунчилигида жиноят содир этишда гумон қилинаётган шахснинг ҳимоя ҳуқуқи билан таъминланганлик ҳолати //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 1/S. – С. 96-103.

INNOVATIVE  
ACADEMY